

O'ZBEKISTONDA MAKROIQTISODIY KO'RSATKICHLAR O'ZGARISHLARINING 2022 VA 2023 YILLAR VA TARMOQLAR MIQYOSIDA TAHLILI.

Ikromov. E. I.

Osiyo Xalqaro Universiteti o'qituvchisi

Annotatsiya: Makroiqtisodiy statistika va tahlilda uzoq davr mobaynida yalpi milliy mahsulot va yalpi ichki mahsulot ko'rsatkichlaridan baravar foydalanib kelindi. Har ikkala agregat ko'rsatkich ham mamlakatdagi iqtisodiy faollik darajasini xarakterlasada kapital va ishchi kuchimigratsiyasi mavjudligi sababli ular o'zaro farq qilishadi.

Kalit so'zlar: Yalpi ichki mahsulot (YaIM), Sof ichki mahsulot (SIM), Yalpi milliy daromad (YaMD), Sof milliy daromad (SMD), shaxsiy daromad (ShD), Shaxsiy tasarrufidagi daromad (ShTD), Iste'mol (C), Jamg'arish ko'rsatkichlarining hajmi, o'sish sur'atlari, Harakatlar strategiyasi, tovar bozorlari, tashqi bozorlar, eksport salohiyati, Jahon iqtisodiyotining globallashuvi, boshqaruv mexanizmi.

O'zbekistonning makroiqtisodiy ko'rsatkichlarini yalpi ichki mahsulot, inflatsiya darajasi (o'sish sur'ati) o'tgan yilning dekabr oyiga nisbatan, asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar, tashqi savdo aylanmasi, eksport, import hajmi orqali 2022 va 2023 yil yillar miqyosida tahlil qilindi.

Makroiqtisodiy ko'rsatkichlar

Ko'rsatkichlar	O'lchov birligi	2022	2023
Yalpi ichki mahsulot	mlrd.so`m	896 617,9	1 066 569,0
	o'sish sur'ati, % da	105,7	106,0
	deflyator indeksi, % da	114,9	112,2
Inflatsiya darajasi (o'sish sur'ati) o'tgan yilning dekabr oyiga nisbatan	%	12,3	8,8
Sanoat mahsuloti	mlrd.so`m	553 265,0	655 821,9
	o'sish sur'ati, % da	105,3	106,0
Iste'mol tovarlari	mlrd.so`m	145 011,7	189 009,7
	o'sish sur'ati, % da	120,7	107,3
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	mlrd.so`m	362 898,0	426 264,0
²⁾	o'sish sur'ati, % da	103,6	104,1

Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar	mlrd.so`m	266 240,0	352 064,1
	o'sish sur'ati, % da	100,2	122,1
Qurilish ishlari	mlrd.so`m	130 790,9	149 864,1
	o'sish sur'ati, % da	106,6	106,4
Chakana savdo tovar aylanmasi	mlrd.so`m	270 687,2	326 160,1
	o'sish sur'ati, % da	110,8	109,1
Ko'rsatilgan bozor xizmatlari, jami ³⁾	mlrd.so`m	366 891,0	470 286,5
	o'sish sur'ati, % da	116,3	113,7
Tashqi savdo aylanmasi	mln. AQSh. Dollar	50 500,3	62 567,4
	o'sish sur'ati, % da	119,8	123,9
Eksport	mln. AQSh. Dollar	19 732,6	24 426,2
	o'sish sur'ati, % da	118,4	123,8
Import	mln. AQSh. Dollar	30 767,8	38 141,2
	o'sish sur'ati, % da	120,6	124,0
Saldo	mln. AQSh. Dollar	-11 035,2	-13 715,0
	o'sish sur'ati, % da	x	x

- O'zbekistonning 2023 yilgi yalpi ichki mahsuloti 2022 yilgiga qaraganda 169951.1 mlrd so'mga oshganligini, o'sish sur'ati 0.3 soizga oshganligi, deflyator indeksi 2.7 foizga kamayganligini ko'rishimiz mumkin.

- Lekin inflatsiya darajasi 2023 yilda 2022 yilga nisbatan 3.5 foizga pasayganligini,

- Sanoat mahsulotni yetishtirish 2023 yilda 2022 yilga nisbatan 102556.9 mlrd so'mga ortganligi, o'sish sur'ati 0.7 soizga oshganligini ko'rishimiz mumkin

- Istemol tovarlari ishlab chiqarish 2023 yilda 2022 yilga nisbatan 43998 mlrd so'mga qisqarganligini, o'sish sur'ati esa 13.4 foizga kamayganini ko'rishimiz mumkin.

- Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi 2023 yilda 2022 yilga nisbatan 63366 mlrd so'ga oshganligi, o'sish sur'ati 0.5 foizga oshganligini ko'rishimiz mumkin

- Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar 2023 yilda 2022 yilga nisbatan 85824.1 mlrd so'mga ortganligi, o'sish sur'ati esa 21.9 foizga oshganligini ko'rishimiz mumkin.

- Qurilish ishlari 2023 yilda 2022 yilga nisbatan 19073.2 mlrd so'mga oshganligini, o'sish sur'ati 0.2 foizga kamayganligini ko'rishimiz mumkin

- Chakana savdo tovar aylanmasi 2023 yilda 2022 yilga nisbatan 55472.9 mlrd so'mga oshganligi, o'sish sur'ati 1.7 foizga kamayganligini ko'rishimiz mumkin

- Ko'rsatilgan bozor xizmatlari, jami 2023 yilda 2022 yilga nisbatan 103395.5 mlrd so'mga ortganligi, o'sish sur'ati 2.6 foizga kamayganligini ko'rishimiz mumkin

-Tashqi savdo aylanmasi 2023 yilda 2022 yilga nisbatan 12067.1 mlrd so'mga ortgan, o'sish sur'ati 4.1 foizga ortganini ko'rishimiz mumkin.

- Eksport hajmi 2023 yilda 2022 yilga nisbatan 4693.6 mln dollar ortgan, o'sish

sur'ati 5.4 foizga ortganini ko'rishimiz mumkin

- Import hajmi esa 2023 yilda 2022 yilga nisbatan 7373.4 mln dollarga ortgan, o'sish sur'ati 3.4 foizga ortganini ko'rishimiz mumkin.

- Saldo hajmi esa 2023 yilda 2022 yilga nisbatan 2679.8 mln dollar ortganligi ko'rishimiz mumkin.

Boshqa tarmoqlar miqyosida:

- a) O'zbekistonda ichki turizmning rivojlanishi bilan bog'liq holatni baholash maqsadida onlayn so'rov o'tkazildi.

Unda mamlakatimizning barcha viloyatlari, Qoraqalpog'iston Respublikasi va Toshkent shahridan jami 1282 nafar respondent ishtiroketdi. So'rov natijasi O'zbekistonda ichki turizmning intensivlik darajasi yuqori emasligini ko'rsatdi. Xususan, respondentlarning 34,7 foizi sayohat qilmasligini, 42,0 foizi yilda bir marotaba, 14,4 foizi har uch oyda bir marotaba sayohat qilishini qayd etgan. So'rov mamlakatimiz bo'ylab amalga oshirilayotgan sayohatlarning deyarli 50 foizi 4a hudud, ya'ni Samarqand (15,8 foiz), Buxoro (9,4 foiz), Toshkent (10,6 foiz) viloyatlari va Toshkent shahri (11,4 foiz) ning hissasiga to'g'ri kelishini ko'rsatdi. Bu borada Qoraqalpog'iston Respublikasi (3,0 foiz) eng kam ulushga ega. Sayohatni qaysi ko'rinishda amalga oshirasiz, degan savolga respondentlarning 81,2 foizi mustaqil ravishda, 15,5 foizi ish joyidan uyushtirilgan holda, 2,4 foizi turoperatorlar yordamida, deya javob bergan. So'rov hamyurtlarimiz sayohatga asosan shaxsiy avtomobili (56,8 foiz) va poyezd orqali (17,3 foiz) chiqishini ko'rsatdi. Turizm yo'nalishlariga kelganda, so'rov qatnashchilarining 17,6 foizi tog' va tog'oldi hududlarida dam olishni, 17,1 foizi oilaviy turizmni, 22,6 foizi ziyorat turizmini, 11,5 foizi madaniy va ma'rifiy turizmni afzal ko'rishini qayd etgan. Ichki turizmni rag'batlantirish, qo'llab-quvvatlash masalasiga kelganda, respondentlarning 26,2 foizi shaharlararo sayohatlar uchun imtiyozlar (ovqatlanish, avtoturargohlar uchun chegirmalar) berish, 23,6 foizi arzon va sifatli jamoat transporti tizimini rivojlantirish, 11,6 foizi transport logistika markazlarini tashkil qilish zarurligini bildirgan. So'rov natijalaridan kelib chiqib, ichki turizmni yanada rivojlantirish uchun quyidagi takliflarni bildirish mumkin:

- asosiy turistik salohiyatidan kelib chiqqan holda har bir hududning o'z brendini shakllantirish;

- «Turistik mahalla», «Turistik hudud» maqomiga ega aholi punktlarining reyestrini shakllantirish va elektron platformani ishlab chiqish;

- hududlar bo'yicha turistik xizmat turlari va yo'nalishlarni keng targ'ib qilish;

- mahallalarda istiqomat qiladigan va «temir daftar»ga kiritilgan oilalarga oilaviy turizm bilan shug'ullanish uchun imtiyoz berish

- a) 2023-yilning 9 oyi (yanvar-sentyabr) davomida sanoat ishlab chiqarishida erishilgan asosiy o'sish omillari

Yanvar-sentyabr oylarida sanoat ishlab chiqarishi 5,7 foizga oshdi. Tahlil qilinayotgan davr boshida sanoat faoliyatining deyarli barcha asosiy sohalari pasayishni yengib, ijobiy o'sish sur'atlariga erishdi.

Sanoat ishlab chiqarishi hajmining qisqa vaqt ichida tiklanishi zamidida korxonalarning o'z vaqtida turli xil imtiyozlar va investitsiyalar hisobiga qo'llab-quvvatlanishi kabi omillar yotadi. Sanoatni rivojlantirish uchun yo'naltirilayotgan investitsiyalar hajmi 113,2 trillion so'mgacha oshdi. Bu esa iqtisodiyotga kiritilayotgan jami investitsiyalarning salkam yarmi (49,9 foiz) demakdir. Bu o'tgan yilning shu davridagiga nisbatan 6,2 foiz punktiga yuqori. Shu jumladan, tog'-kon sektoriga kiritilgan investitsiyalar ulushi 9,9 foizga (+3,9 f.p.), ishlab chiqarish sanoatiga kiritilgan investitsiyalar ulushi 28,9 foizga (+0,5 f.p.), energiya ta'minoti sohasiga kiritilgan investitsiyalar ulushi 7,9 foizga (+ 1,1 f.p.) oshgan.

Tarmoqlarni tartibga solish va manzilli qo'llab-quvvatlashning bevosita va bilvosita dastaklaridan foydalanish quyidagi natijalarga erishish imkonini berdi: tog'-kon sanoatida ishlab chiqarish hajmini barqarorlashtirish (100,4 foiz); energiya ta'minotida o'sish sur'atini saqlab qolish (108,9 foiz); qayta ishlash sanoatida mahsulot ishlab chiqarish sur'atini oshirish (106,4 foiz); Daromad olishda o'sish sur'atini ta'minlagan tarmoqlar tahlilidan kelib chiqqan holda o'tkazilgan reyting baholash natijalari sanoat faoliyatidagi eng serdaromad 5 ta sohani aniqlash imkonini berdi. Soliqlar to'lanishidan oldingi Respublika daromadlari tarkibida ushbu tarmoqlar ulushi oshgani kuzatildi:

- avtotransport vositalari, treylarlar va yarim
- tirkamalarni ishlab chiqarish (+2,13 f.p);
- ichimliklarni ishlab chiqarish (+2,1 f.p);
- metall rudasini qazib olish (+1,5 f.p);
- qurilish materiallarini ishlab chiqarish (+0,7 f.p);
- kiyim-kechak ishlab chiqarish (+0,3 f.p).

Aholining inflyatsion kutilmalari va joriy inflyatsiya o'rtasidagi tafovut monetar siyosat samaradorligiga ta'siri

Ma'lumki, inflyatsion kutilmalar inflyatsiya darajasiga quyidagi kanallar orqali salbiy ta'sir etadi:

1. Talab kanali. Odamlarning kelajakda narxlar oshishini taxmin qilishi ularning joriy xarajatlarini oshiradi.

2. Taklif kanali. Odamlarning kelajakda narxlar oshishini taxmin etishi ularning yuqori ish haqini da'vo qilishga olib keladi. Bu esa o'z navbatida pul-kredit siyosati samaradorligi hamda makroiqtisodiy barqarorlikka bevosita ta'sir ko'rsatadi. Aholining inflyatsion kutilmalari shakllanishida ba'zida ratsionallikdan og'ish holatlari kuzatiladi, ya'ni, aholining kutilmalari asossiz oshib ketishiga quyidagilar ta'sir etadi:

- elektrotexnika va avtomobil kabi tovarlar narxining oshishi aholi kutilmalariga ta'sir etadi, lekin bunda sifat o'zgarishlarining ham hissi mavjud bo'ladi;

- uy narxining ko'tarilishi aholining inflyatsiya kutilmalariga ta'sir qiladi, aslida bunda spekulyatsion harakatlarning ham ta'siri bo'lishi mumkin;
- aholi odatda o'zi iste'mol qilayotgan tovar va xizmatlar savatidagi narxlarga qarab qaror qabul qiladi.

Aholining inflyatsion kutilmalarini asossiz ravishda keskin oshib ketishining oldini olish maqsadida Markaziy banklar inflyatsion targetlash, ya'ni kelgusi davr uchun inflyatsiyani oldindan e'lon qilish siyosatini olib boradi. Mazkur holat Borro-Gordon o'yinlar modeli orqali atroflicha tahlil qilinadi. Bu aholi inflyatsion kutilmalarining shakllanishi inflyatsiyaga bog'liqligini ko'rsatuvchi makroiqtisodiy model bo'lib, unga ko'ra, aholi o'z inflyatsion kutilmalarini Markaziy bankning kelajakdagi pul- kredit (inflyatsion targetlash) siyosatini hisobga olgan holda shakllantiradi. Bunda, 2 o'yinchi - Markaziy bank va aholi, 2 ta strategiya mavjud. Markaziy bank o'zi e'lon qilgan inflyatsiya darajasini ushlab turadi yoki inflyatsiya undan biroz yuqoriroq bo'ladi, aholi esa kutilmalarini shakllantirishda Markaziy bank e'lon qilgan inflyatsiyani inkor etadi yoki undan yuqoriroq inflyatsiya boladi, deb o'ylaydi va oyliklarni o'z kutilmalariga qarab indeksatsiya qilishni istaydi. Markaziy bank keyingi davr uchun inflyatsiyaning target darajasini e'lon qiladi. Agar Markaziy bank keyingi davr uchun e'lon qilgan inflyatsiya targeti va joriy inflyatsiyani bir-biriga muvofiqlashtira olsa, inflyatsion tavofut kamayadi va aholining Markaziy bankka ishonchi ortadi va real iqtisodiy o'sish o'zgarishsiz qoladi. Aksincha, inflyatsiya darajasi Markaziy bank e'lon qilgan ko'rsatkichdan yuqori bo'lsa, aholining Markaziy bankka nisbatan ishonchi yo'qoladi va keyingi davr uchun tafovutni kattalashtiradi. Agar ikkalasi ham e'lon qilingan inflyatsiyadan yuqori boladi, deb harakat etsa, unda yuqori inflyatsiya va yuqori kutilma va ikkalasi ham juda salbiy natijagani qayd etadi. O'yin hamkorlik va raqobat o'rtasidagi strategik keskinlikni aks ettiradi, chunki har bir o'yinchi qaror qabul qilish uchun boshqasining harakatlarini hisobga olishi kerak.

Tahlil natijalariga ko'ra quyidagilar aniqlandi:

- O'zbekiston sharoitida agar aholining inflyatsion kutilmalari 1 foizga oshsa, iste'mol narxlari indeksi 0,53%ga ortadi;
- O'zbekistonda aholi kutilmalari va joriy inflyatsiya o'rtasidagi tafovut 4% atrofida saqlanib qolmoqda;
- davlat inflyatsiya targetini 10% deb e'lon qilgan taqdirda sodda (naive – o'tmishga qarab qaror qiluvchi) aholi inflyatsiyaning 11,1%, moslashuvchan (adaptive - o'tmish, hozirni tahlil qilish orqali qaror qiluvchi) aholi 13,5% va ratsional (o'tmish, hozir va kelajakni tahlil qilish orqali qaror qiluvchi) aholi 18,2% bo'lishini kutadi. Shunday ekan, inflyatsion kutilmalar va joriy inflyatsiya orasidagi tafovutni qisqartirish, qisqa muddatli tebranishlardan keyin iqtisodiyotni barqarorlashtirish, inflyatsiyani targetlangan darajada ushlab turishda yordam beradi. Bunday holatlarning oldini olish uchun Markaziy bank inflyatsiyani targetlashda (jilovlash) realist bo'lishi talab etiladi. Bundan tashqari, aholi narxlar oshib ketishi haqida asossiz xavotirga tushishining oldini olish uchun Ijtimoiy inflyatsiya (aholining katta qismi asosan iste'mol qiladigan tovarlar savati) darajasini e'lon

qilib borish lozim. Bundan tashqari, aholining moliyaviy savodxonligini oshirish va inflyatsiya darajasini baholashda mustaqil ekspertlarni jalb qilish yuqoridagi risklarni kamaytiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Ikromov, E. (2024). THEORETICAL FOUNDATIONS FOR THE ORGANIZATION AND CAPACITY BUILDING OF EXECUTIVE EMPLOYEE LABOR IN PUBLIC ADMINISTRATION BODIES. *Modern Science and Research*, 3(1), 939-946.
2. Ibodulloyevich, I. E. (2023). DAVLAT BUDJETI DAROMADLARINI TAQSIMLANISHINI TAKOMILLASHTIRISH. *Gospodarka i Innowacje.*, 41, 321-325.
3. Ibodulloyevich, I. E. (2023). MAHALLIY BUDJET DAROMADLARINI PROGNOZLASHTIRISHNI TAKOMILLASHTIRISHDAGI MUAMMOLAR.
4. Ibodulloyevich, I. E. (2023). KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKNI YANADA RIVOJLANTIRISH UCHUN QULAY ISHBILARMONLIK MUHITINI SHAKLLANTIRISH. *Gospodarka i Innowacje.*, 42, 481-484.
5. Ikromov, E. (2023). REGULATION OF BUSINESS ACTIVITY IS SIMPLIFIED. *Modern Science and Research*, 2(12), 1107-1111.
6. Ibodulloyevich, I. E. (2023). TADBIRKORLIK FAOLIYATINI TARTIBGA SOLISH SODDALASHTIRILADI.
7. Ibodulloyevich, I. E. (2024). DAVLAT BOSHQARUVI ORGANLARIDA RAHBAR XODIMLAR MEHNATINI TASHKIL ETISH VA SALOHIYATINI OSHIRISHNING NAZARIY ASOSLARI.
8. Ibodulloyevich, I. E. (2024). ZAMONAVIY MENEJMENT TAMOYILLARI VA USLUBLARIDAN FOYDALANISHDA RAHBAR MEHNATINING AHAMIYATI.
9. Ibodulloyevich, I. E. (2024). ZAMONAVIY MENEJMENT TIZIMIDA RAHBARLIK USLUBLARINING TASNIFLANISHI.
10. Ibodulloyevich, I. E. (2024). ISHLAB CHIQRISHDA RAHBAR MEHNATINING ASOSIY O‘RNI VA KORXONALAR IQTISODIY FAOLIYATIGA TA’SIRI. *Gospodarka i Innowacje.*, (45), 311-315.
11. Ibodulloyevich, I. E. (2024). Respublikada Xizmatlar Sifati Va Raqobatbardoshligini Oshirish Orqali Xizmatlar Eksportini Rivojlantirish Istiqbollari. *Gospodarka i Innowacje.*, 46, 247-251.
12. Ikromov, E. (2024). DIRECTIONS FOR IMPROVING THE ORGANIZATIONAL AND ECONOMIC MECHANISMS OF INCREASING THE QUALITY AND COMPETITIVENESS OF SERVICES. *Modern Science and Research*, 3(2), 803-810.

13. Ikromov, E. (2024). THEORETICAL APPROACHES TO THE DEVELOPMENT OF MODERN MANAGEMENT AND ITS METHODS. *Modern Science and Research*, 3(2), 811-819.
14. Ikromov, E. (2024). USE OF FOREIGN EXPERIENCES IN THE ORGANIZATION OF MANAGERIAL WORK IN PRODUCTION ENTERPRISES AND ITS IMPROVEMENT. *Modern Science and Research*, 3(2), 820-828.
15. Ikromov, E. (2024). FOREIGN EXPERIENCES OF SERVICE SECTOR DEVELOPMENT. *Modern Science and Research*, 3(2), 794-802.
16. Ikromov, E. (2023). PROBLEMS IN IMPROVING THE FORECASTING OF LOCAL BUDGET REVENUES. *Modern Science and Research*, 2(10), 794-797.
17. Ikromov, E. (2024). THE IMPORTANCE OF MANAGERIAL WORK IN THE USE OF MODERN MANAGEMENT PRINCIPLES AND METHODS. *Modern Science and Research*, 3(1), 18-23.
18. Ibodulloyevich, I. E. (2024). XIZMAT KO 'RSATISH KORXONALARI FAOLIYATI SAMARADORLIGINI BAHOLASHGA USLUBIY YONDASHUV.
19. Ibodulloyevich, I. E. (2024). XIZMAT KO 'RSATISH KORXONALARINING O 'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI VA AFZALLIKLARI.
20. Ibodulloyevich, I. E. (2024). XIZMAT KO'RSATISH KORXONALARI FAOLIYATI SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI.
21. Turayevich, I. A. (2024). Iqtisodiyotga Investitsiyalarni Jalb Qilish Va Boshqarishning O 'Ziga Xos Xususiyatlari. *Miasto Przyszłości*, 53, 1231-1237.
22. Ibragimov, A. T. (2024). MILLIY IQTISODIYOTGA XORIJIY INVESTITSIYANI JALB QILISHNI SOLIQLAR VOSITASIDA RAG 'BATLANTIRISH. *Gospodarka i Innowacje*, 51, 116-122.
23. Turayevich, I. A. (2024). Milliy Iqtisodiyotga Xorijiy Investitsiyalarni Jalb Qilishda Soliqlarning O 'Rni. *Gospodarka i Innowacje.*, 53, 205-213.
24. Aziz, I. (2023). O'zbekistonda xorijiy investitsiyani jalb qilishni soliqlar vositasida rag'batlantirish yo'llari. *SAMARALI TA'LIM VA BARQAROR INNOVATSIYALAR JURNALI*, 1(5), 191-196.
25. Quدراتова, G. M., & Sodiqova, N. T. (2024). AHOLINING O'ZINI O'ZI BANDLIGINI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI. *ANALYSIS OF MODERN SCIENCE AND INNOVATION*, 1(2), 321-325.
26. Sodiqova, N. T., & Quدراتова, G. M. (2024). INNOVATIVE MANAGEMENT AS A FACTOR OF SUCCESSFUL DEVELOPMENT OF AN ENTERPRISE. *ANALYSIS OF MODERN SCIENCE AND INNOVATION*, 1(2), 315-320.
27. Sodiqova, N. T., & Quدراتова, G. M. (2024). KORXONADA ISH HAQI TO'LASH TIZIMLARI VA SHAKLLARI. *STUDYING THE PROGRESS OF SCIENCE AND ITS SHORTCOMINGS*, 1(2), 279-285.

28. Sodiqova, N. T., & Qudratova, G. M. (2024). STAGES OF BUSINESS VALUATION. *THEORY OF SCIENTIFIC RESEARCHES OF WHOLE WORLD*, 1(2), 167-175.
29. Sodiqova, N. T., & Qudratova, G. M. (2024). O 'ZBEKISTON RESPUBLIKASI BANKLARIDA XMHSNI TADBIQ ETISH XUSUSIYATLARI. *MODERN EDUCATIONAL SYSTEM AND INNOVATIVE TEACHING SOLUTIONS*, 1(3), 253-258.
30. Qudratova, G. M., & Sodiqova, N. T. (2024). OZINI OZI BANDLIGINI TAMINLASHNING ILGOR XORIJIY TAJRIBASI. *THEORY OF SCIENTIFIC RESEARCHES OF WHOLE WORLD*, 1(2), 176-181.
31. Qudratova, G. M., & Sodiqova, N. T. (2024). MONOPOLIYA VA ANTIMONOPOL SIYOSAT. *MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS*, 1(2), 464-468.
32. Qudratova, G. M., & Sodiqova, N. T. (2024). AHOLINING OZINI OZI BANDLIGINI TAMINLASHNING MAZMUN-MOHİYATI. *THEORY OF SCIENTIFIC RESEARCHES OF WHOLE WORLD*, 1(2), 162-166.
33. Sodiqova, N. T., & Qudratova, G. M. (2024). ENTERPRISE MARKETING STRATEGY. *MODERN EDUCATIONAL SYSTEM AND INNOVATIVE TEACHING SOLUTIONS*, 1(3), 259-265.
34. Sodiqova, N. T., & Qudratova, G. M. (2024). TASHKILOTNING INNOVATSION FAOLIYATI SAMARALIGINI BAHOLASH. *STUDYING THE PROGRESS OF SCIENCE AND ITS SHORTCOMINGS*, 1(2), 286-294.
35. Qudratova, G. M., & Sodiqova, N. T. (2024). RAQOBAT TUSHUNCHASI, UNING TURLARI VA USULLARI. *MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS*, 1(2), 459-463.
36. Qudratova, G. M. (2024). METHODOLOGY OF ANALYSIS OF COMPETITIVENESS OF HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS IN BUKHARA REGION. *International journal of artificial intelligence*, 4(10), 341-345.
37. Bahodirovich, K. B. (2024). EXTERNAL FINANCING SOURCES FOR BUSINESSES. *Gospodarka i Innowacje.*, 54, 119-124.
38. Khalilov, B. B. (2024). MANAGERIAL ACCOUNTING-THE LANGUAGE OF BUSINESS MANAGEMENT. *Gospodarka i Innowacje.*, 49, 249-255.
39. Bahodirovich, K. B. (2024). FINANCIAL LEVERAGE RATIOS AND ANALYSIS. *Ethiopian International Journal of Multidisciplinary Research*, 11(11), 418-426.
40. Bahodirovich, K. B. (2023). EVOLUTION OF THE AUDITING PROFESSION IN THE SMART MACHINE AGE. *Gospodarka i Innowacje.*, 41, 450-454.
41. Xalilov, B. (2024). ISSUES OF IMPROVING THE FINANCIAL MECHANISM OF SMALL BUSINESS ENTITIES. *Modern Science and Research*, 3(1), 747-753.

42. Bakhodirovich, K. B. (2023). International accounting models and their characteristics in the conditions of innovative economy. *Zien Journal of Social Sciences and Humanities*, 21, 56-60.

43. Xalilov, B. (2024). COBB-DOUGLAS PRODUCTION FUNCTION AND ITS IMPORTANCE IN BUSINESS MATHEMATICS AND ECONOMIC ANALYSIS. *Modern Science and Research*, 3(1), 754-758.

44. Khalilov, B. (2023). FINANCIAL ELEMENTS OF BUSINESS STABILITY. *Modern Science and Research*, 2(12), 877-882.

45. Khalilov, B. B. (2024). INTERNATIONAL ACCOUNTING ANALYSIS. *Gospodarka i Innowacje.*, 48, 740-745.

46. Khalilov, B. (2023). FINANCIAL INDICATORS OF BUSINESS EFFICIENCY IN COMPANIES. *Modern Science and Research*, 2(10), 835-839.

47. Khalilov, B. (2024). FOREIGN EXPERIENCE IN PERSONNEL MANAGEMENT. *Modern Science and Research*, 3(2), 974-978.

48. Bahromjon, X., & Nargiza, N. (2023). THE PROCEDURE FOR DRAWING UP FINANCIAL STATEMENTS IN JOINT-STOCK COMPANIES ON THE BASIS OF INTERNATIONAL FINANCIAL REPORTING STANDARDS. *Modern Science and Research*, 2(10), 805-811.

49. Bahodirovich, K. B. (2024). RISK-BASED FINANCIAL INSTRUMENTS: THEORIES AND CONCEPTS. *Gospodarka i Innowacje.*, 46, 373-378.